

## CHET TILINI MUSTAQIL O'RGANAYOTGANLARDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH KLASTERLARI

Namangan davlat pedagogika instituti

O'zbek va xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

**Og'abek Yuldashev Komiljon o'g'li**

Namangan davlat pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi

3-bosqich talabasi

**Zokirjanova Madina Zohidjon qizi**

**Annotasiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim sohasidagi asosiy o'rinlarni egallab turgan chet tilini o'rganish va uni o'rganishdagi end samarali va zamonaviy usul hisoblanuvchi kommunikativ, gapirish orqali tilni shakllantirish, undagi e'tiborli jihatlar, hamda tilni shakllantirishdagi eng samarali metodlar ko'rib chiqiladi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается изучение иностранного языка, занимающего сегодня главное место в сфере образования, и наиболее эффективный и современный метод его изучения, коммуникативный, формирование языка через говорение, его важные аспекты, а также наиболее рассмотрены эффективные методы формирования языка.

**Abstract:** In this article, the study of a foreign language, which occupies the main place in the field of education today, and the most effective and modern method of learning it, communicative, language formation through speaking, its important aspects, and the most effective methods of language formation are considered.

**Kalit soʻzlar:** vizual, audiolingual, kommunikativ, subtitr, interaktiv materiallar, aktiv tinglash, fraza.

**Ключевые слова:** визуальный, аудиолингвальный, коммуникативный, субтитры, интерактивные материалы, активное слушание, фраза.

**Keywords:** visual, audiolingual, communicative, subtitle, interactive materials, active listening, phrase

Hozirgi kunda dunyo mamlakatlarida oʻz ona tilini oʻrganishdan tashqari chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini oʻrganish juda ham tez rivojlanib bormoqda. Chet tillarini oʻrganishda gapirish koʻnikmasi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Lekin hamma oʻrganuvchilarda ham gapirish koʻnikmasi birdek ravon ketmaydi. Baʼzi oʻrganuvchilarda nutqiy rivojlanishda muammolar yuzga kelishi mumkin. Mavjud boʻlgan muammolarni bartaraf etishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin. Hususan, audio va video materiallar bilan ishlash chet tilini oʻrganishda gapirish koʻnikmasini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Quyida audio va video materiallar bilan ishlashdan samarali foydalanish uchun bir nechta maslahatlarni keltirish mumkin.

- Gapirish maqsadini belgilash. Gapirishdan oldin, mavzuni aniqlang. Masalan, umumiy tushunishni oshirish, soʻz boyligini kengaytirish, yoki talaffuzni yaxshilash maqsadida tinglash mumkin. Maqsadga qarab gapirish jarayonini rejalashtirish samarali boʻladi.

- Har xil materiallar bilan ishlash. Audio materiallar: Podkastlar, musiqalar, audiokitablar, intervyular kabi turli materiallarni tinglash, har xil talaffuz va aksentlarni tushunishga yordam beradi. Audio materiallar odatda soʻzlashuv tezligi va talaffuzi jihatidan koʻproq tabiiy boʻladi. Video materiallar: Filmlar, seriallar, YouTube videolari yoki darsliklar bilan ishlash koʻproq kontekstni va vizual elementlarni taqdim etadi, bu esa tushunishni osonlashtiradi. Bunday materiallar orqali faqat talaffuz emas, balki madaniyat va kontekst haqida ham maʼlumot olish mumkin. Shuningdek qayta

tinglash birinchi tinglashda, hamma narsani tushunib bo'lmasligi mumkin, shuning uchun materialni bir necha marta tinglash foydalidir. Birinchi tinglashda umumiy ma'lumot olish, ikkinchi tinglashda esa batafsilroq tushunishga harakat qiling.

Mustaqil o'rganuvchilarga gapirish ko'nikmasini eng oson usullaridan biri sifatida Subtitrlar yordamida tinglashni ham keltirish mumkin. Bunda videolarni subtitrlar bilan tomosha qilish, yangi so'zlarni va iboralarni o'rganish uchun yaxshi usuldir. Subtitrlarni chet tilida ishlatish, talaffuzni yaxshilash va so'zlarning yozilishi bilan tanishish imkonini beradi. Dastlab subtitrlarni faqat o'qib, keyin esa gapirib tushunishga harakat qilish mumkin.

Qisqa bo'laklar bilan ishlash, dastlab, qisqa audio va video materiallar bilan ishlash tavsiya etiladi. Masalan, qisqa hikoyalar yoki intervyularni tinglash va keyin ularni qayta ko'rib chiqish, so'zlar va ifodalarning ma'nosini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek Aktiv tinglash usullari ham foydalanish samarali usullardan hisoblanadi. Aktiv tinglash deganda, faqat eshitish emas, balki materialni diqqat bilan tinglab, mantiqiy xulosalar chiqarish ham nazarda tutiladi. Tinglash davomida muhim fikrlarni yoki yangi so'zlarni yozib olish, matnni o'z so'zlaringiz bilan qayta aytib berish foydali bo'ladi. Ba'zi audio va video materiallar orqali aniq bir mavzu yoki so'zlarni eshitish bo'yicha mashqlarni bajarish samarali bo'lishi mumkin. Masalan, faqat so'zlar va frazalarni eshitish, talaffuzga e'tibor berish yoki tezlikka moslashish. Gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda qiyinchilikni oshirish dastlab, oson va tushunarli materiallar bilan boshlang, so'ngra qiyinchilik darajasini asta-sekin oshirib boring. Murakkab materiallar, masalan, tezkor suhbatlar yoki noaniq talaffuzli materiallar, ko'proq qiyinchilik yaratadi, ammo ular orqali eshitish ko'nikmalarini tezroq rivojlantirish mumkin.

-Interaktiv materiallardan foydalanish, masalan, til o'rganish ilovalari yoki onlayn platformalar (Dualingo, Elza, ChatGPT, Google classroom) orqali foydalidir. Bunday dasturlar orqali tinglash mashqlarini va savollarni javoblashni amalga

oshirishingiz mumkin. Bu usul yordamida siz materialni tushunganingizni tekshirish va takrorlash imkoniyatiga ega bo'lasiz.

- O'zgaruvchan tezlikda tinglash

Birinchi marta tinglashda materialni sekinroq tezlikda tinglash, so'ngra tezlikni oshirish orqali tinglash va tushunish qobiliyatini yaxshilash mumkin. Bu usul, eshitish qobiliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yordam beradi.

chet tilini o'rganishda gapirish ko'nikmasini rivojlantirish uchun zamonaviy va samarali usullarni qo'llash muhimdir. Audio va video materiallardan foydalanish, shuningdek, subtitrlar yordamida o'rganish jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

Ushbu metodlar orqali o'rganuvchilar nafaqat tilni o'rganish jarayonini qiziqarli va interaktiv qilishadi, balki nutqiy ko'nikmalarini ham mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda maqsadlarni aniq belgilash, turli xil materiallardan foydalanish va takroriy tinglash jarayonlarini o'z ichiga olish muhim ahamiyatga ega. Bu usullar yordamida o'rganuvchilar o'zlarining talaffuzlari, so'z boyliklari va umumiy tushunish darajalarini yaxshilashlari mumkin.

chet tilini o'rganishda gapirish ko'nikmasini rivojlantirish uchun zamonaviy va samarali usullarni qo'llash muhimdir. Audio va video materiallardan foydalanish, shuningdek, subtitrlar yordamida o'rganish jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

### **Xulosa:**

Xulosa qilib aytganda, chet tilini mustaqil o'rganayotganlarda gapirish ko'nikmasini rivojlantirish uchun zamonaviy va innovatsion yondoshuvlarni qo'llash zarur. O'rganuvchilar audio va video materiallardan, shuningdek subtitrlar orqali o'z bilimlarini mustahkamlashlari kerak, bu esa ularning tilni o'zlashtirish jarayonini yanada samarali qiladi. Xulosa qilib aytganda, chet tilini mustaqil o'rganayotganlarda



gapirish ko'nikmasini rivojlantirish uchun zamonaviy va innovatsion yondoshuvlarni qo'llash zarur. O'rganuvchilar audio va video materiallardan, shuningdek subtitrlar orqali o'z bilimlarini mustahkamlashlari kerak, bu esa ularning tilni o'zlashtirish jarayonini yanada samarali qiladi. Audio va video materiallar bilan ishlash orqali tilni o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilish mumkin. Eslatib o'tish kerakki, bu jarayonda davomiylik va mashq qilish muhimdir. Boshqa ko'nikmalar bilan birga eshitish ko'nikmasini ham muntazam ravishda rivojlantirish talab etiladi.

Bundan tashqari video yoxud audio materiallarni so'zlovchi orqasidan ketma-ket tarzda takrorlash ham so'zlar joylashuvi, gap qurilishi, gap bo'laklarining avtomatik holda tabiiy ravishda tartibga in chiqishi uchun zamin yaratib beradi. Chet el mahalliy aholi tomonidan amalga oshirilgan kundalik kundagi suhbat, dialog yoki xalq og'zaki ijodidagi molologik asarlarni takrorlash, ularni audio rekord qilish va undagi yangi so'z talaffuzlari ustida muntazam ravishda ishlab borish kommunikativ qobiliyatlarni tabiiy tarzda tez o'zladhtirilishida muhim bir ahamiyatli jihatlaridan biri hisoblanadi. Yuqoridagi tavsiyalar chet tilini o'rganishda eshitish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali usullarni taqdim etadi. Ularni quyidagi asosiy xulosalar bilan umumlashtirish mumkin: qisqa materiallar bilan ishlash: dastlab, qisqa audio va video materiallar, masalan, hikoyalar yoki intervyular bilan ishlash tavsiya etiladi. Bu usul yangi so'zlar va ifodalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi; aktiv tinglash: tinglash jarayonida faqat eshitish emas, balki muhim fikrlarni yozib olish va mantiqiy xulosalar chiqarish ham zarur. Bu faol ishtirok etish orqali materialni chuqurroq tushunishga yordam beradi; mashqlarni Bajarish: Maxsus mavzular bo'yicha tinglash mashqlarini bajarish, so'zlar va frazalarni eshitish, talaffuzga e'tibor berish kabi amaliyotlar ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega; qiyinchilik darajasini oshirish: dastlab oson materiallardan boshlash, so'ngra qiyinchilik darajasini oshirish orqali tinglash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish mumkin. Shu bilan bir qatorda interaktiv materiallar, ya'ni til o'rganish ilovalari va onlayn platformalar orqali tinglash mashqlarini bajarish, materialni tushunganingizni tekshirish va takrorlash imkoniyatini beradi; o'zgaruvchan tezlikda tinglash: materialni

dastlab sekinroq, keyin esa tezroq tezlikda tinglash orqali eshitish qobiliyatini yaxshilash mumkin. Eshitish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun davomiylik va muntazam mashq qilish zarur. Audio va video materiallarni so'zlovchi orqasidan takrorlash, kundalik suhbatlarni va xalq og'zaki ijodini qayta ijro etish orqali kommunikativ qobiliyatlarni tabiiy ravishda rivojlantirish mumkin.

Umuman olganda, yuqoridagi usullar chet tilini o'rganishda eshitish ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga yordam beradi va bu jarayonda qatnashuvchilarning o'zaro muloqot qilish qobiliyatini oshiradi.

### REFERENCES

1. . Og'abek Yuldashev., & Zokirjonova Madina.(2024).GRAMMATICAL TYPES OF IDIOMS AND TRANSLATION OF METHOD
2. Zokirjonova Madina.(2024). Teaching methods for foreign language learning in preschool and school system.
3. Zokirjonova Madina.(2024)Some common educational problems and their solutions
4. Zokirjonova Madina.(2024). Maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish usullari .
5. O'G'Li, O. A. K. (2024). O'ZBEK VA INGLIZ XALQ MAQOLLARI O'RTASIDAGI LINGVOKULTUROLOGIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARNING MAZMUNI VA ULARNING AMALDA QO'LLANILISHI. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 801-805.
- 6.Komiljon o'g, O. A. Y. (2024). GENERAL CHARACTERISTICS OF AMERICAN ROMANTICISM. TADQIQOTLAR. UZ, 32(2), 85-91.
- 7.Komiljon o'g, O. A. Y. (2024). METHODS OF EFFECTIVE DEVELOPMENT OF LISTENING SKILLS IN STUDENTS WHO DO NOT MAJOR IN A FOREIGN

LANGUAGE. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(12), 554-558.

8.Egamberdiyeva, S. (2024). ALLA JANRI SPETSIFIKATSIYASI VA TASNIFLANISHI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(7), 117-126.

9.Mamajonovna, E. S. (2024). UMUMTURKIY TILLAR ALLALARIDA ALLITERATSIYA VA ASSONANS. TADQIQOTLAR, 32(2), 46-50.